

Sharqona odob mohiyati



10.02.2023

Sharqona odob mohiyati

Jamoada ishlayotgan faol, ibratli ayol professor-o'qituvchilarni jalg qilgan holda talaba-qizlar o'rtasida "Sharqona odob-axloq" va "Talaba-qizlar kelajak hayotga tayyormi?" mavzularida targ'ibot ishlarini amalga oshirish maqsadida qator tadbirlar o'tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri "Yer resurslari va kadastr" fakultetida ham bo'lib o'tdi. Unda universitetimiz "Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi" raisi Z.Ismailova, "Yer resurslari va kadastr" fakultet hamda "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti dekanlari va kengash a'zolari Z.Hafizova, F.Yunusova, D.Xursandova, "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekan muovini H.Eshova, fakutet tyutorlari va talaba-qizlar ishtirok etishdi. Tadbirda so'zga chiqqan ayol professor-o'qituvchilar talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ahamiyatga ega bo'lgan va qizlar bilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar yoritib berildi. Tadbirda talaba-qizlar qanday axloqqa ega bo'lishi kerakli ularning kiyinish madaniyati kabi mavzularda so'z bordi. Davra suhbatlar jarayonida milliy urf-odatlar va qadriyatlar masalasi xususida ham kerakli ma'lumotlar berildi.



Bu uchrashuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad esa talaba-qizlarni hayotga tayyorlash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish hamda ma'nnaviyati va dunyoqarashini yuksaltirishga qaratilgan. Shuningdek, talaba-qizlarimiz tomonidan qovoqlardan tayyorlangan turli salatlar, karvin sanatlari, hamda chevarchilik mahoratlari bo'yicha ham mahorat darslari namoyish etishdi. Tadbir so`ngida fakultetlar "Xotin-qizlar masalalari" bo'yicha dekan maslahatchilari Z.Xafizova va F.Yunusovalar 2022 yildagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berildi. Fakultetdagi xotin-qizlar masalalari yig'ilish ishtirokchilari tomonidan muhokama qilindi va berilgan takliflar fakultetda amalga oshirish uchun belgilab olindi. Hisobotda yoritilgan masalalar yuzasidan Universitet xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat Kengashi raisi Ismailova Zuxra Karabayevna so'zga chiqib, amalga oshirilgan ishlarni ijobiy baholadilar va 2023 yilda fakultetda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustivor vazifalarga to'xtaldi.



"Yer resurslari va kadastr" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti